DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-05-03-61 Pages: 534-541

Oriental Journal of Philology



ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:
http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about



USING PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN DEVELOPING READING AND WRITING SKILLS IN ARABIC

Malika A.Rasulkhadjayeva
Leading expert
Department of Foreign languages
Academic lyceum Tashkent State University of Oriental Studies
Email: malikaakramovna7@gmail.com
Uzbekistan, Tashkent

ABOUT ARTICLE

Key words: creative approach, pomidoro, cognitive thinking, main ideas.

Received: 06.03.25
Accepted: 08.03.25
Published: 10.03.25

Abstract: This article focuses on the application and effective use of modern pedagogical technologies in teaching the Arabic language. It is noted that until now, traditional methods have been used in teaching the Arabic language in the classroom, and now modern pedagogical technologies and approaches, including interactive teaching methods, digital tools and communicative methods, are being applied to the process of teaching the Arabic language. The article focuses on reading and writing, which are considered to be the main aspects of the Arabic language, and explains with examples the methods that serve to master this aspect well in language learning.

Recommendations are given on the cases in which they are effective in the process of language acquisition and on choosing the optimal teaching strategy.

ARAB TILIDA O‘QISH VA YOZISH KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Malika A. Rasulxadjayeva
Yetakchi mutaxassis
Xorijiy tillar kafedrasi
Toshkent davlat sharqshunoslik univesiteti akademik litseyi
Email: malikaakramovna7@gmail.com
O‘zbekiston, Toshkent

MAQOLA HAQIDA

Kalit so`zlar: kreativ yondashuv, pomidoro, kognitiv fikrlash, asosiy g'oyalar.

Annotatsiya: Mazkur maqolada arab tilini o'qitishva yozma ko'da zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash va ulardan samarali foydalanish masalanikmalarni rivojlantirishga e'tibor qaratilgan. Bugungi kunga qadar dars jarayonida arab tilini o'qitishda an'anaviy usullardan foydalanib kelingani, endilikda esa zamonaviy pedagogik texnologiyalar va yondashuvlar jumladan, interaktiv dars usullari, raqamli vositalar va kommunikativ metodlarning arab tilini o'qitish jarayoniga tatbiq etilayotgani ta'kidlangan.

Maqolada arab tilining asosiy aspektlaridan sanalgan o'qish va yozishga diqqat qaratilgan va til o'rganishda ushbu aspektni yaxshi o'zlashtirishga xizmat qiluvchi metodlar misollar yordamida tushuntirib berilgan. Tilni o'zlashtirish jarayonida ularning qaysi holatlarda samarali bo'lishi va optimal o'qitish strategiyasini tanlash bo'yicha tavsiyalar berilgan.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ НАВЫКОВ ЧТЕНИЯ И ПИСЬМА НА АРАБСКОМ ЯЗЫКЕ

Малика А. Расулхаджаева
Ведущий эксперт
Кафедра иностранных языков
Академический лицей Ташкентского государственного университета востоковедения
Email: malikaakramovna7@gmail.com
Узбекистан, Ташкент

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: креативный подход, помидоро, позновательное мышление, основные идеи.

Аннотация: В данном статье основное внимание уделяется применению современных педагогических технологий и их эффективному использованию в обучении арабскому языку. Отмечается, что до сегодняшнего дня в преподовании арабского языка использовались традиционные методы, а теперь в преподовании арабского языка применяются современные педгогические технологии и подходы. В том числе интерактивные методы обучения, цифровые средства и коммуниактивные методы.

В статье основное внимание уделяется чтению и письму, которые являются одними из основных аспектов арабского

языка, а на примерах объясняются методы, которые служат овладению этим аспектом. В процессе овладения языком даются рекомендации, в каких случаях они эффективны и как выбрать оптимальную стратегию обучения.

Kirish. Bugungi globallashuv davrida arab tilini o‘rganish va o‘qitish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Arab tili nafaqat diniy va madaniy merosni anglash, balki xalqaro aloqalar, ilm-fan va texnologiya sohalarida ham dolzarb til hisoblanadi. Shu boisdan, arab tilidagi matnlarni o‘qitish va yozma ko‘nikmalarni rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish katta ahamiyatga ega.

Maqolada bugungi kun talablariga mos va dolzarb bo‘lgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali ta’lim berish va unga kreativ yondashish haqida so‘z yuritilgan. Arab tili fanidan amaliy dars mashg‘ulotlarida matnlarni o‘zlashtirishni bir qancha ilg‘or pedagogik texnologiyalar orqali mustahkamlash ko‘rsatib o‘tilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O’rganilayotgan mavzuni yoritishda tegishli ma’lumotlar va tahliliy fikrlarni bir qator arab tilidagi manbaalar va adabiyotlardan foydalangan holda yondashilgan. Mazkur izlanishda arab olimlaridan Mahmud Kamil Annaqo, Ali Ahmad, Iymon Ahmad Huraydi, Dr Obayd Muhammad Abdulhalim Abduljavvod darslika va manbaalaridan hamda o‘zbek olimlari M. Aripova, Sh. Nosirovalar tomonidan ilgari surilgan o‘qitish metodikalariga oid ma’lumotlaridan foydalangan holda izlanish olib borilgan. Tadqiqot mavzusining yoritilishida qiyoslash, tavsiflash, tasniflash, ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish kabi tadqiqot va tahlil usullari qo‘llanilgan.

Natijalar. Yangi pedagogik texnologiyalar va ularning afzalliklari:

1. Interfaol ta’lim metodlari
   - ✓ Klaster texnologiyasi yordamida matnning asosiy g‘oyalarini aniqlash.
   - ✓ “Insert” usuli orqali matn ustida faol ishlash va tushunchalarni tahlil qilish.
   - ✓ Jamoaviy ishlash usullari orqali o‘quvchilarning muloqot va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.
2. Axborot texnologiyalaridan foydalanish
   - ✓ Elektron darsliklar va interfaol platformalar orqali masofaviy ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish.
   - ✓ Sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan tarjima tizimlari yordamida mustaqil o‘rganish jarayonini jadallashtirish.
   - ✓ Ovozli lug‘atlar va multimedia vositalari orqali to‘g‘ri talaffuz hamda nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish.

3. Gamifikatsiya (oʻyinlashtirish) yondashuvi
   - ✓ Arab tilidagi matnlarni oʻrganishda turli viktorinalar va rol oʻyinlaridan foydalanish.
   - ✓ QR-kodli topshiriqlar yordamida interaktiv mashgʻulotlarni tashkil qilish.
   - ✓ “Quest” oʻyinlari orqali yozma koʻnikmalarni mustahkamlash.
4. Differensial va individual yondashuv
   - ✓ Talabalarning til bilish darajasiga mos tarzda topshiriqlar berish.
   - ✓ Mustaqil ijodiy ishlarga yoʻnaltirilgan topshiriqlar tayyorlash.
   - ✓ Oʻquvchilarning qiziqish va ehtiyojlarini inobatga olib, mos usullarni qoʻllash.

Xorijiy tillarni oʻrganishda oʻqish, mutolaa katta ahamiyat kasb etganligi sababli olimlar oʻqishga alohida baho bergan. Masalan:

و تعد القراءة هي الوسيلة الألي في نفل الفكر الإنساني و التراث الحضاري من جيل إلي جيل و من أمة إلي أمة، حيث تعد القراءة وسيلة من وسائل الاستمتاع و التقدم و النجاح، و أداة من أدوات حل المشكلات، و من ثم فلا ينبغي أن تكون القراءة دون فهم، لأنها حينئذ تفقد معناها الصحيح و قيمتها الحقيقية، فمهارة الفهم هي المهارة المستهدفة من تعليم القراءة، و تعني تمكين المتعلم من معرفة معنى الكلمة و معنى الجملة، و ربط المعني بعضها بالبعض، تنظيمها في تتابع منطقي متسلسل، كما تعني الاحتفاظ بالمعني و الأفكار و استخدامها في أنشطة الحيا [Teaching Arabic to no nat…., 2001,p. 248].

Ma’nosi: mutolaadan zavqlanish, taraqqiyot va muvaffaqiyat vositasi, muammolarni hal etish vositasi boʻlgani uchun inson tafakkuri va madaniy merosini avloddan-avlodga, xalqdan-xalqqa yetkazishning asosiy vositasidir. Shuning uchun ham tushunmasdan oʻqimaslik kerak, chunki tushunmay mutolaa qilinsa, u oʻzining haqiqiy qiymatini va toʻgʻri ma’nosini yoʻqotadi. Tushunish mahorati oʻqishni oʻrgatishning maqsadli mahoratidir. Bu esa oʻquvchiga soʻz va jumlaning ma’nosini bilish, ma’nolarni bir-biriga bogʻlash, ularni mantiqiy ketma-ketlikda oʻrganish imkoniyatini beradi. Bu, shuningdek, ma’no va gʻoyalarni saqlash va ulardan hayotiy faoliyatda foydalanishni anglatadi.

و نظرا لذا القصور في الاهتمام باتراتيجيات تنمية مهارات فهم المقروؤ لدى متعلمي اللغة العربية الناطقين بغيرها؛ فإن هناك شكوى من كثير من المعلمين و أعضاء هيئة التدريس من ضعف بعض متعلمي اللغة العربية الناطقين بغيرها في مهارات فهم المقروؤ؛ فالدارسون في المستوى المتقدم لا يستطعون التميز بين الأفكار الرئيسة و الفرعية، و تحديد المعاني الضمنية التي أرادها الكاتب، و لا يفكرون فيها وراء النص المقروؤ، و لا يضيفون للنص معاني جديدة، ومعظم الكتب المستخدمة في تعليم اللغة العربية للطلبة الأجانب تعتمد على القواعد و الترجمة [Teaching Arabic…2006,p.45-46].

و هما يمكن القول بغير كثير من التجاوز! إن كل موقف من مواقف تعليم العربية للناطقين بلغات أخرى هو موقف فريد في حد ذاته. فهو يحتاج إلى أهداف خاصة، و إلى مواد تعليمية و أدوات و وسائل مختلفة، وإلى طرائق و أساليب للتدريس و التقويم خاصة [Teaching Arabic…2006,p.5].

Ma’nosi: Ona tili boʻlmagan arab tilini oʻrganuvchilar orasida oʻqishni tushunish koʻnikmalarini rivojlantirish strategiyalariga qiziqish yoʻqligi hisobga olinsa, koʻpgina oʻqituvchilar va professor-oʻqituvchilardan ba’zi ona tilisi arab tili boʻlmagan

o‘rganuvchilarning o‘qishni tushunish ko‘nikmalarida zaiflik borligi haqida shikoyatlar qiladilar. Yuqori bosqichdagi o‘quvchilar asosiy va yordamchi g‘oyalarni ajrata olmaydilar, yozuvchi nazarda tutgan yashirin ma’nolarni aniqlay olmaydilar, o‘qigan matn ortidagi g‘oyalar haqida o‘ylamaydilar. Matnga yangi mazmun qo‘sha olmaydilar. Xorijiy talabalarga arab tilini o‘rgatishda foydalanilgan kitoblarning aksariyati grammatika va tarjimaga tayanadi.

Matnni mutolaa qilayotgan o‘quvchi uni: “Bu juda ko‘p” deb aytishi mumkin. Boshqa tillarda so‘zlashuvchilarga arab tilini o‘rgatishning har bir pozitsiyasi o‘ziga xosdir. Buning uchun aniq bir maqsad qo‘yish kerak va bunga o‘quv materiallari, o‘qitish uslublari va turli usullarni talab qiladi.

Muhokama. Odatda, o‘qituvchi xorijiy tilni o‘qitish, o‘rgatish usulini o‘zi tanlaydi. O‘qitishning mazmuni deyarli o‘zgarmaydi, ammo uni talabalarga yetkazish usuli o‘zgarishi mumkin.

O‘qitishning bir qancha usullari mavjud. Dars jarayonida quyidagi o‘qitish usullaridan foydalanish mumkin: ma’ruza, misol keltirish, namoyish qilish, bahs-munozara, savol-javoblar.

Bu usullar talabalar bilan muloqot qilish, shuningdek, qo‘yilgan maqsadga yonaltirilgan fikrlarni yoritish usuli yoki shaklidir. [Using modern pedagogical…4, p.41]

O‘qituvchi xorijiy tillarni, xususan, arab tilini o‘qitishda muayyan vaziyatni va ta’lim jarayoniga mos o‘qitish uslubini tayin qilib olishi zarur. Bunda auditoriyadagi o‘quvchilar soni muhim rol o‘ynaydi.

O‘quvchi arab tilidagi notanish matnni yaxshi o‘zlashtirishi, ko‘nikma hosil qilishi va matn yuzasidan o‘z fikrini ravon ifoda eta olishi muhim aspektlardan hisoblanadi.

Bunday ko‘nikmani o‘quvchida rivojlantirish va uni o‘z ona tilidek o‘zlashtirishi uchun esa bir qator ilg‘or pedagogik texnologiyalar mavjud. Shu bilan bir qatorda, o‘qituvchi nafaqat pedagog, balki psixolog ham bo‘lishi kerak.

Biz bilamizki, o‘qish xotirani, savodxonlikni, diqqatni rivojlantirishning universal usulidir. O‘qilgan matnlar yodlab olinishi yoki doimiy takrorlanib borilishi kerak. Nafaqat vizual, balki eshitish xotirasi ham jalb qilinishi kerak.

O‘rganilayotgan tilda, xususan, arab tilida matnlarni o‘yinlar orqali ham o‘qitish o‘quvchilarning qiziqishini yaxshi shakllantiradi.

Arab tilidagi matnlarni o‘qitish va yozma ko‘nikmalarni rivojlantirishda quyidagi pedagogik uslublar yaxshi samara beradi:

“Juda ko‘p ishga ulgurish san’ati”. Roben Sharma aytadiki: “Inson hayotida kundalik yuritishi juda muhimdir”. Shunga muvofiq o‘qituvchi ham o‘tilajak dars mashg‘ulotiga avvaldan tayyorlanishi kerak. Pomidoro strategiyasi mashhur va unumdor “Pomidoro usuli” dir.

Bunda amaliy dars jarayoni boshida 1. Barcha chalg‘ituvchi vositalar (ijtimoiy tarmoq, telefon) o‘chiriladi.

2. Diqqat elektron doska ekranidagi yangi matnga qaratiladi va o‘z bilim va salohiyatiga tayangan holda har bir o‘quvchi umuman hech narsaga chalg‘imay matnni o‘qib chiqadi. So‘ng lug‘at yordamida matndagi notanish so‘z va iboralar ustida ishlanadi. Bunga 25 daqiqa ajratiladi. 5 daqiqadan matn yuzasidan o‘z fikrlarini aytadilar.

Bunda o‘quvchi matnda kelgan yangi so‘zlar: ism, fe’llar, iboralar ishtirokida jumlalar tuzadilar.

Masalan, bu matnda kelgan yangi so‘z va iboralar:

في كبد الشمس،تكوي الأجساد، أسراب، مخابئ،وقفتُ منتظرا تلك الحافلة،مآبي اليومي.

3. So‘ng o‘quvchilarning fikrlarini jamlab olishlari uchun 5 daqiqalik tanaffus beriladi.

4. O‘quvchilar yana “pomidoro”dan foydalanib matnni yaxshi o‘zlashtirish uchun matnni qaytadan o‘qib chiqadilar va matnga boshqa sarlavha berish yoki matn yuzasidan savol-javob qilish orqali uni mustahkamlashlari mumkin bo‘ladi. Bu usulda o‘qituvchi faqat xatolarni to‘g‘rilash va dars so‘ngida o‘quvchilarni baholash uchun ishtirok etadi.

Pomidoro vaqtni boshqarish tizimi bo‘lib, insonlarning vaqti ularga qarshi emas, ular uchun ishlashga yordam beradigan texnika. Bunda siz o‘z vaqtingizni 25 daqiqalik bo‘limlarga ajratib chiqasiz va har 25 daqiqadan so‘ng 5 daqiqa dam olasiz. Har bir 25 daqiqa pomidoro deb ataladi va siz 4 ta pomidoro ya’ni 4 ta 25 daqiqadan so‘ng 15-20 daqiqalik tanaffusga ega bo‘lasiz. Texnikaning asosiy g‘oyasi shundaki siz ish kuni davomida o‘zingizda cheksiz vaqt bor deb emas, balki atigi 25 daqiqa bor deb hisoblaysiz. Mana shu 25 daqiqa ichida foydali vazifani bajarib qolishga intilishingiz va amalga oshirishingiz, sizning texnikani to‘g‘ri anglab yetganingizni bildiradi. Yana bir muhim jihat shundaki, insonda qanchalik kam vaqt bo‘lsa, bu vaqtni ijtimoiy tarmoqlarga kirish yoki ish vaqtida boshqa narsalarga chalg‘ish bilan emas, oldiga qo‘ygan maqsadni amalga oshirish bilan o‘tkazadi.

Auditoriyaning har xil qobiliyat va xarakterga ega dinamik muhit ekani barchamizga ma’lum. Shuning uchun samarali o‘qituvchi bo‘lish talabalarning shaxsiy ehtiyojlarini qondirish uchun o‘qitishning ijodiy va innovatsion strategiyasini amalga oshirishni talab qiladi.

Yana bir unnovatsion texnologiyalardan biri bu “Kognitiv fikrlash metodi”dir.

Ushbu metod orqali:

1. O‘qituvchi o‘z fani doirasida o‘quvchilarda piktografik tasavvurlarini kashf etadi;

2. O‘quvchida tasavvur qilish, ijod qilish, o‘z fikrini erkin bayon qilish ko‘nikmalari shakllanadi;

3. Har tomonlama rivojlanish, bilim olishda ushbu metod juda muhimdir;

4. Bitta metodda uchta ko‘nikma rivojlanadi.

Bu metodni qo‘llash uchun kerak bo‘ladigan vositalar:

a) Turli jarayon va vaziyatlarni tasvirlab beruvchi rasmlar kerak bo‘ladi. Bunday rasmlarni o‘qituvchi oldindan tayyorlab qo‘yadi. Masalan, avvalgi dars mashg‘ulotida o‘tilgan matn yuzasidan bo‘lishi yoki o‘sha matn bilan bog‘liq rasm bo‘lishi mumkin. Albatta, bu rasmlar rangli bo‘lgani afzaldir. Hozirgi texnologiyalar rivojlangan davrda interaktiv doska orqali rasmlar namoyish qilinsa, yana ham maqsadga muvofiq bo‘ladi.

b) Rasmlarning rangli nusxalari o‘quvchilarga tarqatib chiqiladi;

c) O‘quvchilar rasmlarga qarab biror mavzuda insho yozishlari yoki biror voqeani arab tilida hikoya qilib berishlari kerak bo‘ladi;

d) Topshiriqni bajargan o‘quvchilarni doskaga chaqirib, o‘quvchilarga namuna sifatida ko‘rsatish, uni olqishlash va rag‘batlantirish kerak.

Ushbu metodni qo‘llashdan avval o‘quvchilarga keyingi dars haqida ma’lumot beriladi va turli mavzulardagi rasmlarga tayyor bo‘lib, so‘z boyliklarini oshirib kelishlari tayinlanadi.

Yuqorida berilgan “Pomidoro” va “Kognitiv fikrlash” kabi metodlari akademik litseyning ikkinchi kurs o‘quvchilari uchun qo‘llanilgan. Dars jarayonida 13 nafar talaba bo‘lib, barcha o‘quvchilar matnni yaxshi o‘qib-tushunish, matndagi yangi so‘zlar va iboralar ishtirokida jumlalar tuzish hamda matn yuzasidan o‘z fikrlarini bayon etish kabi bilim ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Bu metod orqali o‘quvchilar nafaqat matn yuzasidan erkin suhbat olib boradilar, balki arab tilida berilgan matn yuzasidan o‘z bilim va so‘z boyliklariga tayanib yangi bir matn, ya’ni insho yoza oladilar.

Xulosa. Arab tilidagi matnlarni o‘qitish va yozma ko‘nikmalarni rivojlantirishda yangi pedagogik texnologiyalar va kreativ yondashuvdan foydalanish samaradorlikni oshiradi. Interfaol metodlar, axborot texnologiyalari, gamifikatsiya va individual yondashuv orqali o‘quvchilarning tilni o‘zlashtirish jarayoni yanada tezlashadi va qiziqarli bo‘ladi. Shu sababli, arab tilini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar keng joriy etilishi zarur.

Chet tilini, xususan, arab tilini puxta egallagan shaxsga dunyo o‘z eshiklarini ochadi. Arab tilini o‘rganish bilan bir qatorda, uning madaniyati, ma’rifati va xalqi tarixini ham o‘rganadi. Bu esa yoshlarning intellektual salohiyatini oshiradi, kelajakda xalqaro hamkorlikni keng yo‘lga qo‘yishga imkon beradi. Shuningdek, dars jarayonida ta’lim metodlarining noan’anaviy usullaridan to‘g‘ri foydalanish bilim va ko‘nikmalarning ko‘rsatkichlarini shakllantirishga imkon beradi. Darsda pedagogik texnologiyalarning turli xil uslublaridan mohirona foydalanish va unga zamon talabi bo‘lib kelayotgan kreativ yondashish tilga bo‘lgan qiziqishi va uni ravnaq toptirishiga o‘zining yuksak hissasini qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Mahmud Kamil Annaqo, (2001). Teaching Arabic to non-native speakers, Its foundations, its approach, and its strategies –Al-Qura University. - p.248 (in Arabic).

2. Ali Ahmed Madkour, and Iman Anmed, (2006). Teaching Arabic to non-native speakers-theory and practice – Arabic thought house –pp.45-46 (in Arabic).

3. Ali Ahmed Madkour, and Iman Anmed, (2006). Teaching Arabic to non-native speakers: theory and practice – Arabic thought house – p.5 (in Arabic).

4. Aripova M., Nosirova Sh. (2014). Using modern pedagogical technologies in teaching English - "Modern education"- 2, p. 41. (in Uzbek).